

BANKLARDA ICHKI AUDIT

¹ *Olimjonova Nasibaxon Ahmadjon qizi,*

² *Abdiyeva Nilufar Shoyim qizi,*

³ *Maxmudova Zoxida Maqsudali qizi,*

¹ *Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti magistranti,*

² *O'zbekiston Milliy Universiteti magistranti,*

³ *O'zbekiston Milliy Universiteti 4-kurs talabasi,*

¹ *Gmail: nolimjonova@list.ru,*

² *Gmail: nilufarabdiyeva8@gmail.com*

³ *Gmail: makhmudovazokhida@gmail.com*

Annotatsiya. Maqolada ichki auditning bank boshqaruv tizimidagi o'рни va ahamiyati bilan bog'liq masalalar ko'rib chiqilgan. Ichki audit, ichki nazorat va ichki nazorat tizimi tushunchalari ochib berilgan. Ichki nazorat tizimining asosiy vazifalari o'rganiladi. Shuningdek, ichki auditni tashkil etish va o'tkazishda belgilangan asosiy tamoyillar ko'rib chiqiladi. Bundan tashqari, maqolada ichki audit xizmatining korporativ boshqaruvdagi o'рни ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: ichki audit, ichki nazorat; ichki auditning ichki nazorat tizimi tamoyillari; ichki audit xizmati.

ВНУТРЕННИЙ АУДИТ В БАНКАХ

Аннотация. В статье рассмотрены вопросы, касающиеся роли и значения внутреннего аудита в системе управления банками. Раскрыты понятия внутреннего аудита, внутреннего контроля и системы внутреннего контроля. Изучены основные задачи системы внутреннего контроля. Также рассмотрены основные принципы, положенные в организацию и проведение внутреннего аудита. Кроме того, в статье обозначена роль службы внутреннего аудита в корпоративном управлении.

Ключевые слова: внутренний аудит, внутренний контроль; система внутреннего контроля принципы внутреннего аудита; служба внутреннего аудита.

INTERNAL AUDIT IN BANKS

Annotation. The article deals with issues related to the role and importance of internal audit in the bank's management system. The concepts of internal audit, internal control and internal control system are disclosed. The main tasks of the internal control system are studied. The basic principles laid down in the organization and conduct of

internal audit are also considered. In addition, the article outlines the role of the internal audit service in corporate governance.

Keywords: internal audit; internal control; internal control system, principles of internal audit; internal audit service.

Kirish. Ma'lumki, tijorat banklari faoliyatiga real baho berish va omonatchilar, kreditorlar va investorlarning bank faoliyati to'g'risida aniq ma'lumotlarga ega bo'lishlarida audit tekshirishlari muhim ahamiyatga egadir.

Iqtisodiy munosabatlarda auditning zaruriyati hisobot berish kontseptsiyasi talablari bajarilishi yuzasidan kelib chiqadi. Bu bir tomon ikkinchi bir tomonga hisobot berish va majburiyat bajarilishini nazorat qilishni e'tirof etadi va bu nazorat ma'lum bir ma'lumot, tushuntirish yoki hisobot olishni nazarda tutadi.

Hisobot berish quyi bo'g'in boshqaruvchilari yuqori bo'g'in boshqaruvchilarning aksiyadorlarga hisobot berishi kerakligidan kelib chiqadi. Shuning uchun audit nazoratning mexanizmi sifatida yuzaga keladi va hisobot berishning bajarilishiga va ularning oydinlashtirilishiga yordam beradi.

Bank tizimida ichki nazorat tizimining zarurligi va ahamiyatini ko'rsatuvchi ko'plab tadqiqotlar mavjud. Ichki nazorat tizimining yetarli emasligi ko'pincha firibgarlik faoliyatini avj olishiga va bank faoliyati samaradorligining pasayishiga olib keladi[1;699].

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi – Tijorat banklari faoliyatida ichki auditorlik tekshiruvini tashkil qilishning nazariy va uslubiy asoslarini o'rganish masalalari ko'pchilik iqtisodchi olimlar hamda mutaxassislarning e'tiborida bo'lgan. Xususan, xorijlik olimlardan L.Smirnova, A.K.Makalskaya³, L.A.Golovnina, L.G.Batrakova, G.N.Beloglazova, O.V.Efimova, E.P.Jarkovskaya, P.S.Rouz, G.G.Korobova, O.I.Lavrushin, D.M.Noton, I.V.Peshchanskaya, A.K.Polishchuk, A.D.Sheremetlarning ilmiy ishlarida tadqiq qilingan.

Heri ichki auditning funktsiyalarini quyidagicha tavsiflaydi: "Ichki auditor moliyaviy hisob va boshqa operatsiyalarni nazorat qilish sifatini tekshirish va baholash vazifalarini bajaradi. Shuningdek, u yo'qotishlarning oldini olish uchun kompaniyaning foydalanilgan aktivlarini va uning javobgarligini tekshiradi.[2;120]

Mamlakatimiz olimlaridan Sh.Abdullaeva, N.Karimov, T.Qoraliev, I.Murugova, K.Navro'zova, S.Norqobilov, Abdusalomova O.4, X.Rahimova va ilmiy ishlarida o'z ifodasini topgan.

Asosiy tahlil va natijalar. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tijorat banklarini ichki auditdan o'tkazishda yangi talablar qo'yilmoqda.Tijorat banklarida ichkiaudit faoliyati O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonunini va O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankning ichki bank xizmatlari bozoridagi o'rnining

mustahkamligi va uning bank xizmatlari narxlariga ta'sir eta olish imkoniyati ham baholanib, bunda bankning jami aktivlar, xususiy kapital, kredit portfeli va mijozlarning depozit pul mablag'lari hajmi bo'yicha bozordagi mavqei ko'riladi.

Tijorat banklari faoliyatini tahlil etish subyektlari nuqtayi nazaridan ular ikki turga: birinchidan, tashqi va ikkinchidan, ichki tahlilga bo'linadi. Banklarning tashqi tahlili asosan, Markaziy bank, tashqi auditor tashkiloti va soliq inspeksiyalari tomonidan amalga oshiriladi.

Ichki tahlil, odatda, bankning ichki audit guruhi, tegishli departament va boshqarmalar hamda har bir bank xodimining funksional vazifalari yuzasidan amalga oshiriladi.

Ta'kidlash joizki, banklarda ichki audit tarmoq boshqaruvidan mustaqil bo'lim bo'lib, uning asosiy vazifasi banklarda faoliyat sifati va samaradorligini tekshirish, risklarni boshqarish va aktivlarni himoya qilishdan iborat.

Ichki nazorat - bu korporatsiya tarkibida tuzilgan tizim bo'lib, uning maqsadi faoliyat samaradorligi va samaradorligini oshirishdir. Tizim qonunlar va me'yoriy hujjatlarga rioya qilishni ta'minlaydi va moliyaviy hisobotning ishonchliligini oshiradi. Ichki nazorat tizimi tashkilotning yakuniy maqsadlariga erishishi uchun juda omildir. Ichki nazorat tizimi banklarga moliyaviy yo'qotishlarga olib kelishi mumkin muammolarni oldindan ko'rish va shu orqali kelajakdagi yo'qotishlarning oldini olish yoki minimallashtirish imkonini beradi.

Banklar uchun ichki nazorat tizimining asosiy maqsadi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni bartaraf etish maqsadida barcha bank amaliyoti va operatsiyalarining xalqaro audit standartlari, bank qonunchiligi, normativ-huquqiy hujjatlar va qoidalarga muvofiqligini doimiy nazorat qilishdan iborat.[3;119]

Ichki auditning o'ziga xos xususiyati uning faoliyatining hozirgi iqtisodiy vaziyatga mos keladigan quyidagi yo'nalishlarini rivojlantirishdir:[4;595]

1. Prognoz yo'nalishi. Auditorlik xulosasida joriy moliyaviy ahvolni ko'rsatishdan tashqari, korxonaning rivojlanish istiqbollari ham ochib berilishi kerak.

2. Maslahat yo'nalishi. Ichki auditor buxgalteriya hisobi, soliqqa tortish, moliyaviy va boshqaruv tahlili va hokazolar sohasida mutaxassis hisoblanadi va ushbu yo'nalishlarda bankga maslahat beradi.

3. Analitik yo'nalish. Ichki audit jarayonining asosiy e'tibori tashkilotning joriy faoliyatini, uning o'ziga xos risklari nuqtai nazaridan tahlil qiladi.

Bankning ichki auditori katta afzalliklarga ega, chunki ichki auditor tashqiga qaraganda kam xarajat talab etadi va buxgalteriya hisobidagi kamchiliklar va xatolar uning yordamida tez va samarali tarzda aniqlanadi. Shuningdek, ichki auditorlar o'z banklari faoliyati va muammolari bilan ko'proq tanish bo'lishadi.

Eng katta muammolardan biri shundaki, ichki auditor odatda bank ijroiya boshqaruviga bo'ysunadi, bu esa uning ish samaradorligini sezilarli darajada cheklaydi.

Ichki audit o'zi tekshirishi shart bo'lgan bank bo'linmalaridan mustaqil bo'lishi va bank ichida tegishli maqomga ega bo'lishi kerak.[5;12]

Shuningdek, ichki audit xizmati xodimlarining soni qo'yilgan vazifalarni samarali hal etish uchun yetarli bo'lishi, mazkur xizmat xodimlari kasbiy ko'nikma va tegishli malakaga ega bo'lishi lozimligini ham qayd etish joiz.

Bu muammoni hal etishning eng samarali yo'llaridan biri buxgalteriya hisobi va audit bo'yicha xalqaro miqyosda tan olingan assotsiatsiya va tashkilotlarda diplom yoki sertifikatlariga ega bo'lgan ichki auditorlarni tayyorlashdir[6].

Bugungi beqaror iqtisodiy muhitda bank sektori keng doiradagi murakkab muammolariga duch kelmoqda. Bu muammolar raqobatbardosh bozor bosimi, me'yoriy hujjatlarga rioya qilish, sud jarayonlari, investor talabi, o'zgaruvchan texnologiyalar, korporativ boshqaruv, biznes etikasi va javobgarlik shaklida namoyon bo'ladi.[7]

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Adeyemi B., Adenugba A. Corporate Governance in the Nigerian Financial Sector: The Efficacy of Internal Control and External Audit // Global Conference on Business and Finance Proceedings, 6(2), 2011. -P.895
2. Hery. Potret Profesi Audit Internal // Jakarta: Alfabeta, 2010.-P.285
3. Ozten S., Kargin S. Credit Control and Accounting Process Within the Scope of Internal Control Activities in Banking // Afyon Kocatepe University Publishing, 14 (2), 2012.-P. 256.
4. Хорохордин Д.Н., Боброва Т.Д. актуальные проблемы организации внутреннего аудита // Территория науки, 2007.-P.670.
5. Инструкция об организации системы внутреннего контроля в банках, небанковских кредитно-финансовых организациях, банковских группах и банковских холдингах: утв. Правлением Нац. банка Респ. Беларусь 30 ноября 2012 г. № 625: с изменениями и дополнениями от 26 ноября 2014г. - 160 с.
6. <http://be5.biz/ekonomika1/r2015/1975.htm>
1. 7. <https://cyberleninka.ru/article/n/vnutrenniy-audit-i-kontrol-v-bankah-problemy-i-perspektivy-razvitiya#>